

## XALQ DOSTONLARIDA IJOBIY ISTAK BILDIRUVCHI SO‘ZLAR (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA)

Yabbarbergenova Shadigul Abdullayevna

*Nukus shahar 1-sonli kasb-hunar maktabi*

*o‘zbek tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalq og‘zaki ijod namunalari- dan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni haqida so‘z yuritiladi. “Alpomish” dostonida qahromonlik, botirlar mardligi, vatanparvarlik tuyg‘usi, xalqlarning do‘stligi, sevgi va sadoqat timsoli, oila mustahkamligi va bu doston qahromonlik doston bo‘li-shiga qaramay unda millatning madaniy-ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, oilaviy munosabatlari, urf-odatlarini, insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati, uning yaxshi tilak-niyatlari, orzu-istaklari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Xalq og‘zaki ijodi, doston, baxshilar, qahromonlik, vatanparvarlik, yaxshi tilak, mehr-muhabbat, orzu-istak, ijobiy istak, urf-odat, barkamol avlod.

Xalq og‘zaki ijodi durdonalari go‘yo buloqqa o‘xshaydi, bu-xalqimiz o‘tmishi uning o‘chmas tarixi, urf-odatlarini, orzu-istaklari va avlodlarimiz kelajagi poydevori demakdir. Unda millatning o‘zligini anglashi, hayotga bo‘lgan intilishlari, dunyo- qarashlari o‘z aksini topgan. Ajdodlarimizning milliy-ma’naviy merosi asrlar osha yashab kelmoqda. Doston-bu xalq og‘zaki ijodining eng yirik turlaridan bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, hayoliy mazmunga ega bolgan voqealarni bayon qiluvchi asarlardan hisoblanadi. Doston o‘zida xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Vaqt o‘tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g‘oyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali o‘z maqsadlari, orzu-istaklari, his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Dostonlarning birinchi ijod- kori unitilib, ular avloddan-avlodga o‘tish natijasida xalqning mulkiga aylanib borgan. Dostonlarda asosiy qahromanlar qiyofasida insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik, jasurlik, vafodarlik, sadoqat kabi olijanob fazilatlar ko‘rsatib beriladi. “Doston” so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarini va qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma’nolarini anglatadi. Doston so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan “Doston-qissa, hikoya. Xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar, og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan ma’lum mashhur sarguzasht hikoyalar, gap-so‘zlar ta’rif-tavsiflar”[1]. Dostonlarni odatda baxshilar ijro etgan. Kechalari odamlar o‘rtasidagi ginokorliklar unitilib, turmush tashvishlari chekingan. Shuning uchun doston kechalari har bir tinglovchi uchun katta bayram bolgan. Masalan, “Alpomish” dostonida Alpomish- ning mardligini, Barchinning go‘zal yuzini ko‘z oldimizga keltiradi. Bunday payitda yoshu-kattalarning butun hayoli dostonidagi voqealar bilan band bolgan. “Alpomish” dostoni qahromonlik dostonlar qatoriga kiradi. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan dostonning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq versiyalari mavjud. “Alpomish” dostonida qahromonlik, botirlar mardligi, vatanparvarlik tuyg‘usi, xalqlarning birodorligi, sevgi va



sadoqat timsoli, oila mustahkamligi haqida soʻz boradi. Birinchi preziden timiz I.A.Karimov 1999-yil Termiz shahrida “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimida soʻzlagan nutqida aytganidek: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgoy boʻlishga, oʻz yurtimizni, oilamiz qorgʻonini qoʻriqlashga, doʻstu-yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mazozlarini har qanday tajovuzdan himoyo qilishga oʻrgatadi”[2]. “Alpomish” dostoni qahromonlik doston boʻlishiga qaramay unda millatning madaniy-ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, oilaviy munosabatlar, urf-odatlar, insonlarning bir-biriga boʻlgan mehr-muhabbati uning yaxshi tilak-niyatlari, orzu-istaklari oʻz aksini topadi. “Alpomish” dostonida Barchinoy umr yoldoshiga sodiq. Alpomish yetti yil oʻzga yurtlarda bedarak ketganida u umidini uzmaydi, botirni kutadi. U oʻz tugʻilgan elini, xalqini chin yuragidan sevadigan qiz.

*On tórtimde baxtim meniñ ashilǵay*

*Duz nesiybem Baysın elge shashilǵay*

Barchinoy oʻzga yurtda vatanini koʻrish, unga qaytish ishtiyoqi bilan Boysun elini sogʻinib yashaydi[3].

Qoraqalpoq tilida istak maylining *-gʻay-gey* shaklli turi olqish, maʼnosini ifodalab, kelasi zamonda bajariladigan ish-harakatni ijobiy istak mazmunida beradi[4].

Dostonda betakror anʼanalar, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, doʻstlik va unga turfa hil munosabat kabi gʻoyalar beriladi. Xalq dostonlarida ham ijobiy istak mazmunidagi soʻzlar uchraydi, bunda qahromonlarning koʻnglidagi orzu-istaklarini bildiruvchi qatorlarni koʻrishimiz mumkin.

Barchinoyning kelin qilib Qalmoqdan Boysunga uzatilishida urf-odatlardan biri “Erga koʻrsatdi” rasmi tilga olingan. Unga koʻra kelinning otasi bir qoyni soʻyib, kuyovni chaqirib, ziyopat bergan, unga va yaqinlariga sarpolar ulashgan. Soʻng yolgʻa otlangan kelin-kuyovlarga ota “oq fotiha” bergan. Dostonda Boysarining Barchinni uzatayotgandagi soʻzi, ota sifatida olqishi shunday berilgan:

*Jonim bolam, Barchin koʻngling boʻlmagin,*

*Otam qoldi, deb sen xafa boʻlmagin,*

*Koʻp yashagin, koʻp yilgasha oʻlmagin,*

*Yaxshilik koʻr, yomonlikni koʻrmagin*

*Tengquringga qoʻshdim senday bolamni* [5].

Biz bu qatorlardan koʻrishimiz mumkin Barchining otasi qiziga hayot yollarida yaxshi yashashi, har doim unga yaxshilik hamrohi boʻlishini tilab, oq fotihasini beradi. Bunday urf-odatlar bugungi kunda ham oʻz koʻrinishini saqlab qolgan.

Feʼl asosiga *-gin-gil* qoʻshimchasini qoʻshish bilan buyruq maʼnosida soʻrash, iltimos, maslahat tarzida ifodalanadi.[6]

Koʻrinadiki, buyruq-istak maylidagi feʼlning *-gin* affiksli shakli gapda buyruq mazmunini kuchsizlantirib, olqish mazmunining taʼkidlanishiga sabab boʻladi[7].

*Alpamistiñ anasiniñ sózi:*

*Hawa jawsın aydın kóller hól bolsın*



*Kórinedi tillá eriń iyninde*

*Jigerbentim, jalǵız balam, jol bolsın [8] (ijobiy ma'noda) Oq yo'l tilash mazmunini ifodalagan ijobiy istak birliklari.*

*Baybórinin sózi:*

*Belińe jarasqan tillá dárbentim,*

*Taymaǵayda qartayǵanda dáwletim*

*Balam seni bir qudaǵa tapsırdım*

*Aman barıp saw kelgeyseń perzentim [9] (ijobiy ma'noda) Oq yo'l tilash mazmunini ifodalagan ijobiy istak birliklari.*

*Alpamıstın sózi:*

*Saǵınǵan jerde, shıraǵım*

*Belińe mádet bolsın, - dep,*

*Dizeme quwat bolsın, - dep,*

*Hár betinen bir súyip*

*Sińlisi menen xoshlasıp*

*Attın basın ońǵarıp*

*Kete berdi jónine [10] (ijobiy ma'noda) Modal munosabatni ifodalovchi olqish birliklari.*

*Gúlparshınnın sózi:*

*On tórtimde baxztım meniń ashılǵay,*

*Duz-nesiybem Baysın elge shashılǵay [11] (ijobiy ma'noda) Ollohga iltijo mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.*

*Qálenderdin sózi:*

*Júrekteń shıqqas ármanım*

*Taymaǵay bastan dáwranı*

*Bir - bir nannan berińler*

*Aman- saw shıqqay palwanım [12] (ijobiy ma'noda) Modal munosabatni ifodalovchi olqish birliklari.*

*Alpamıstın sózi:*

*Aldımız kesh, uzaq jol*

*Qaldı túyem keyninde*

*Pátiyamdı bereyin*

*Aman kelgey balańız*

*Qasıńa búgin miyman qıl [13] (ijobiy ma'noda) Rasm-odat ifodalovchi olqish birliklari.*

*Jádigerdin sózi:*

*Ashılǵan güller solmasın*

*Biyájel bende ólmesin [14] (ijobiy ma'noda) Ollohga iltijo mazmunini ifodalovchi ijobiy istak birliklari.*



*Qaynağa, sóyte kór, iymanlı bol, kóp jasa, balań kelgey, - deydi [15]*(ijobiy ma'noda). Rasm-odat ifodalovchi olqish birliklari.

Olqish mazmunini ifodalovchi birliklarda qo'llangan I shaxsdagi buyruq-istak maylidagi fe'l gapda istak, tilak mazmunini reallashtirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, "Alpomish" dostoni asosida ona Vatanga bo'lgan muhabbat, sog'inich, do'stlariga, sevgan yoriga sadoqat kabi tuyg'ularni, o'z orzu-istaklarni, yaxshi tilaklarni mujassam etgan bebaho asarni, Alpomish timsolida bo'lsa ma'naviy barkamol, axloqan pok, vijdonli xalqimizning mard o'g'lonlarining qiyofasini ko'ramiz. Bu bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodlarni barkamol, qalbi yaxshi niyatlarga to'la inson bo'lib tarbiyalanishida o'rni beqiyosdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediya si", 2006.
2. I.A.Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi", 1999-yil, 9-noyabr.
3. Jarimbetov Q, Nizamatdinov J, Allambergenov I. Qaraqalpaq folklori. Toshkent-2018.151-bet.
4. Házirgi qaraqalpaq tili. Morfologiya. Nókis-1981.168-bet.
5. M. Sharipova, G. Farmonova "Nikohdan so'ng ado etiladigan urf-odatlar tasviri ("Alpomish" dostoni misolida), Bux.DU. Maktabgacha ta'lim kafedrası. 2021-yil.
6. Q. Sapaev. Hozirgi o'zbek tili (Morfemika, so'z yasaliş va morfologiya). Toshkent-2009.163-bet.
7. O'zbek tilining grammatikasi. I tom. Morfologiya. Toshkent-1975.466-bet.
8. Qaraqalpaq folklori. I tom. Qaraqalpaqstan baspası.1981.